

OILAVIY TARBIYADA MILLIY-ETNIK QADRIYATLARNING O'RNI

*NamDU, Psixologiya kafedrası dotsent v.b.
Akbarov Soxodilla Yuldashboyevich*

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy-psixologik g'oyalarning shakllanish tarixi, etnik xususiyatlarning shaxs kamolotiga ta'siri, shuningdek yosh avlodga oilaviy tarbiya berishda milliy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: etnopsixologiya, etnos, xalqlar psixologiyasi, til, afsonalar, udumlar, millat, ong, milliy o'zlik, oila tarbiyasu, milliy qadriyatlar.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНО-ЭТНИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СЕМЕЙНОМ ВОСПИТАНИИ

*и.о. доцента кафедры Психология, НамГУ
Акбаров Соходилла Юлдашбоевич*

Аннотация: В статье освещается история формирования социально-психологических идей, влияние этнических особенностей на развитие личности а также, место и значение национальных ценностей в семейном воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: этнопсихология, этнос, психология народов, язык, мифы, обычаи, нация, сознание, национальное самосознание, семейное воспитание, национальные ценности.

Etnopsixologiya – etnik(ma`lum bir xalq va uning madaniyatiga oid) birlik vakillari bo`lgan odamlarning milliy-psixologik xususiyatlarining ifodalanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o`rganuchi psixologiya sohasi. Rus psixologi, professor G.M.Andreyevaning fikriga ko`ra, "... Etnopsixologiya – bu ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya va etnografiya fanlarining o`zaro kesishgan nuqtasida vujudga kelgan fan bo`lib, inson ruhiyatining milliy xususiyatlarini o`rganadi ...". Ijtimoiy psixologiya sohasidagi ilk nazariy konsepsiyalar XIX-asrning ikkinchi yarmi – XX asrning dastlabki o`n yilliklarida ishlab chiqilgan. Germaniyada 1859 yilda yangi nashr "Xalqlar psixologiyasi va tilshunoslik jurnali" chop etiladi, uning mualliflari tilshunos Shteyntal (1824-1903) va faylasuf Latsarus (1833-1893) xalqlar psixologiyasi to`g`risida ma`lumot beradilar. Jurnalning birinchi sonida inson ruhining qonuniyatlarini ochishga xizmat qiladigan yangi fanning mohiyatini yoritishga urinib ko`radilar. Bu dastlabki ijtimoiy-psixologik konsepsiya - xalqlar psixologiyasini yaratishga qo`yilgan birinchi qadam bo`lib qoldi.

Ma`lum vaqtdan so`ng, “Xalqlar psixologiyasi” konsepsiyasi V.Vundt tomonidan qayta ishlandi va 10 tomlik asarlari chop etildi.

Etnik psixologiyaning umumiy tarzda qabul qilingan kategoriyasi –
“Millatning psixologik tuzilmasi”



«Millatning psixologik tuzilmasi»

=

«milliy xarakter»

=

«milliy o`zlikni anglash»

=

«milliy psixologiya»

=

«xalq ruhi»



V.Vundt eksperimental psixologiyaning otasi sifatida qayd etiladi, chunki mashhur fiziolog Gelmgolts o`quvchisi sifatida birinchi marta psixologiyani fiziologiyadan ajratish va alohida fan sifatida o`rganish taklifini kiritadi. V.Vundt parallel ravishda ikkita muhim psixologik muammoni tadqiq etadi:

- ❖ odamni introspeksiya metodi orqali o`z-o`zini bilish muammosi;
- ❖ xalqlar psixologiyasining alohida individ ongiga ta`sir ko`rsatish muammosi.

V.Vundt jamoaviy psixikani, odamlarning muayyan bir sharoitdagi individual psixik xolatlarining o`zaro qo`shilishi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, avvalo individning ong xususiyatlari orqali tushuntirib bo`lmaydigan jamoatchilik hayotidagi xodisalarni o`rganish zarur sanaladi. Vundt asos bo`lib xizmat qiladigan uchta xodisani ajratib ko`rsatadi: xalqning tili, afsonalar va udumlar[3].

○ *Til xalqlar psixologiyasiga jiddiy ta`sir ko`rsatadi, chunki til xalq ruhiyatida yashayotgan tasavvurlar mazmunini tashkil etadi.* Boshqa tillarni bilish odamning uni o`rab turgan olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi, biroq odamning fikr yuritib, mushohada qiladigan o`z ona tili o`ziga xos va alohida muhim o`rin tutadi.

○ *Afsonalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, ular voqelikni idrok etish orqali paydo bo`lgan ilk taasurotlar, hamda tasavvurlarga bogliq xissiy*

kechinmalar va mayllarni ifoda etadilar. Afsonalar kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lib, ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, badiiy to'qima obrazlar timsolida avloddan avlodga o'tib keladi, jamiyat hayotida ommaviylikka erishib, individual va ijtimoiy ong darajasiga birdek ta'sir ko'rsatadi.

○ *Milliy udumlar alohida olingan xalq uchun ayrim ijtimoiy vaziyatlarda tipik (odatiy xol) bo'lgan xulq-atvor namunalarini aks ettiradi. Udumlar(milliy urf-odatlar, rasm-rusumlar) turli-tuman vaziyatlarda odamning xulqini idora etadi, ayniqsa shaxs uchun qadri hayotiy vaziyatlarda, masalan oila qurish uchun nikohdan o'tish, oilada farzand ko'rish, dafn marosimi kabilarda xulq nazorati yanada kuchayadi.*

Xalqlar psixologiyasi konepsiyasining uchta asosiy negizi – til, afsonalar va milliy udumlarni ajratish orqali V.Vundt fyndamental ijtimoiy-psixologik muammolarni ishlab chiqish sari muhim qadam qo'yadi[4].

○ *Tarixni yurgizadigan asosiy kuch, bu – xalq, Vundt ta'biri bilan aytganda, «yaxlitlik ruhi». «Yaxlitlik ruhi» o'zini din, san`at, til, afsonalar va udumlarda namoyon etadi.*

Har bir alohida olingan xalq(millat)ning o'ziga xosligi, uning ijtimoiy-tarixiy madaniyati, tili, dini, urf-odatlari, qadriyatlarini, aynan shu millatning hayot tarzi va milliy ruhiyatida o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqi milliy qiyofasi, xarakteri, xulq-atvori, axloq-odobi bilan ajralib turadi, millatimizning aql-idroki, zakovati, fe'l-atvori, qobiliyatlarini, ma'naviyti va qadriyatlarini o'ziga xoslikka ega, xalqimizning tarixiy an'analari, urf-odatlarini, udumlari, rasm-rusumlari, axloq me'yorlarini, ma'naviy qadriyatlarini boshqa xalqlarnikidan ma'lum darajada farqlanib turadi.

Milliy o'zlikni anglash - odamning ijtimoiy-etnik, milliy mansubligi, jamiyat hayotidagi turli-tuman sohalarda o'z millatining qadr-qimmatini, tutgan o'rni, egallagan maqomini yaqqol tasavvur qilishida o'z ifodasini topadi.

Zardushtiylikning qadimiy kitobi «Avesto»da oilaning muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir», deb yozilgan.

Qadimdan bobolarimiz va momolarimiz farzandning jismi, sog'lig'i va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan harom narsalardan uzoq bo'lishni uqtirishgan, oila ustuni bo'lgan erkak(ota) o'z ayoli va farzandlarini muhofaza qilgan.

Hozirgi kunda ba'zi yoshlarning turli illatlar, yot g'oyalar domiga tushib qolayotganligi, oilada ota nufuzining pasayib borishi azaliy qadriyatlarimizga rahna solmoqda. Aynan ushbu masala yuzasidan Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: “ ... Meni jiddiy o'ylantiradigan yana bir

muhim masala bor. Bu yoshlarimizning xulq-atvori, yurish-turishi, ularning tarbiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Xalqimizda "Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar" degan ma'noli gap bor. Bugungi shiddatli o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan farzandlarimiz zamon talablariga uyg'un bo'lish bilan birga, o'zligini, milliy qadriyatlarini ham hech qachon unutmasligi kerak..."[1].

Ba'zan o'zining ota-onasiga nisbatan mehrsizlik, loqaydlik, andishasizlik va betgachoparlik singari millatimizga yot bo'lgan salbiy alomatlar ham ko'zga tashlanib qolayapti. Bugungi kunda otaning oldida o'zini "zamonaviy" tutadigan, g'arb madaniyatiga monand kiyininib telefonni qo'lidan qo'ymaydigan qizlar, otaning oldida andisha qilmasdan chekadigan yigitlar ham uchrab turadi. Dono xalqimizda "Ota o'tirgan uyning tomiga ham chiqib bo'lmaydi" degan naql bor, shuning uchun farzandning axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish o'rinlidir[1].

Buyuk sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritgan ekan, avvalo oila boshlig'i oldiga qator talablarni qo'yadi. "...Oila boshlig'i, deb yozadi u, oiladagi tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'i nazar, ularni birlamchi vazifasidir...". Ibn Sinoning fikricha, ota-ona "nafaqat so'z, balki amalda bola ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim".

Mamlakatimizda katta bunyodkorlik ishlari va ulkan yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning tafakkuri va dunyoqarashi o'zgardi, ammo biz, ota-onalar, ustozlar farzand tarbiyasida mas'uliyat hissini unutmasligimiz, oilamizga, milliy qadriyatlarimizga tahdid solayotgan salbiy omillarga qarshi kurasha olishimiz va yuksak ma'naviyat sari dadil odim tashlashimiz lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент. "Ўзбекистон" НИМУ, 178-бет. 2020;
2. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz.
3. Андриенко Е.В. Социальная психология. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. В.А.Сластенина. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. – 264 с.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. T. "Fan va texnologiya" – 2010.